# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO`LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2024-yil 16-iyun, № 120 (8743) Yakshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

## O‘ZBEKISTON PREZIDENTI “BMT TURIZM” BOSH KOTIBI BILAN UCHRASHUV O‘TKAZDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Samarqand shahrida amaliy tashrif bilan yurtimizda bo‘lib turgan “BMT Turizm” (Butunjahon turizm tashkiloti) bosh kotibi Zurab Pololikashvili bilan uchrashuv o‘tkazdi.**



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O‘zbekiston bilan BMTning mazkur ixtisoslashtirilgan instituti o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Samarqandda 2023-yil oktabr oyida bo‘lib o‘tgan tashkilotning 25-sessiyasida erishilgan kelishuvlarni va ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish jarayoni ko‘rib chiqildi. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O‘zbekiston tashabbusi bilan 2027-yilni “Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” deb e’lon qilish to‘g‘risidagi rezolyutsiya qabul qilingani yuksak baholandi.

Tashkilot zamonaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirish va yurtimizga sayohat qilishni ommalashtirish bo‘yicha O‘zbekistonning strategik hamkoriga aylangani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar va obyektlarni barpo etish, ziyorat va madaniy-ma’rifiy turizmni, jumladan, ichki turizmni rivojlantirishga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha qo‘shma sa’y-harakatlarni davom ettirish muhimligi ta’kidlandi.

Samarqandda faoliyat yuritayotgan Xalqaro turizm akademiyasi imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda mehmondo‘stlik va servis sohasida malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

O‘zbekistonga turizm yo‘nalishini ommalashtirish maqsadida mahalliy turoperatorlarning yirik xalqaro turizm yarmarkalari va ko‘rgazmalarida ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlash borasidagi amaliy hamkorlik kengaytiriladi.

**O‘zA.**

## O‘ZBEKISTON XALQIGA QURBON HAYITI TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni, butun xalqimizni tinchlik, mehr-oqibat va hamjihatlik fazilatlaridan tobora obod va munavvar bo‘layotgan yurtimizga kirib kelgan Qurbon hayiti bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu saodatli damlarda barchamiz bu ulug‘ ayyomning ruhi va shukuhini chuqur his etib, el-yurtimiz bilan birgalikda shunday yorug‘ kunlarga yetkazgani uchun Yaratganga cheksiz shukronalar aytamiz.

Xalqimiz hayotida ezgulik, mehr-muruvvat, saxovat va oliyjanoblik ramzi sifatida mustahkam qaror topgan Qurbon hayiti bugungi kunda biz uchun barcha sohalarda inson qadri yetakchi o‘ringa chiqayotgan Yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli islohotlar mazmuniga naqadar uyg‘un va hamohang ekani bilan yanada ahamiyatli bo‘lib bormoqda.

Ayniqsa, mahalla va xonadonlarimizda tinchlik-osoyishtalik, do‘stlik va ahillik muhitini mustahkamlash, keksalar, yoshlar va xotin-qizlar, kam ta’minlangan oilalar haqida g‘amxo‘rlik qilish, hech kimni mehr va e’tibordan chetda qoldirmaslikka qaratilgan ezgu ishlarimizda muqaddas dinimiz, uning insonparvarlik mohiyatini o‘zida yaqqol ifoda etadigan ushbu fayzli bayram biz uchun ibrat maktabi, kuch-g‘ayrat manbai bo‘lib xizmat qiladi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Aziz do‘stlar!

Qalblarimiz quvonchga to‘lgan ushbu yorug‘ kunlarda keyingi yillarda mamlakatimizda azaliy diniy qadriyatlarimizni tiklash, muqaddas qadamjolarni obod qilish borasidagi ulkan ishlar, yurtimiz mo‘min-musulmonlarining ibodat arkonlarini, jumladan, haj va umra ziyoratlarini erkin amalga oshirishlari uchun yaratib berilayotgan qulay sharoitlar haqida so‘z yuritishimiz tabiiydir.

Qisqa muddatda Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy markazlari tashkil etildi. Abu Iso Termiziy, Abu Muin Nasafiy, Sulton Uvays Qaraniy, Suzuk ota yodgorlik majmualari tubdan obod qilindi. Yangitdan barpo etilayotgan Imom Buxoriy yodgorlik majmuasi va Islom sivilizatsiyasi markazida qurilish va jihozlash ishlari jadal davom ettirilmoqda. Shular qatorida shahar va qishloqlarimizda ko‘plab muhtasham masjidlar barpo etilmoqda.

Keyingi yetti yilda 60 mingdan ziyod yurtimiz musulmonlari haj amallarini bajardilar. Shu kunlarda yana 15 ming nafar vatandoshimiz ikki muqaddas shahar – Makka va Madina ziyoratiga borib, o‘zlarining ezgu orzularini amalga oshirmoqdalar.

Pok niyatlar ijobat bo‘ladigan mana shunday ilohiy lahzalarda ularning barchasiga chin dildan haj ibodatlarini to‘liq ado etib, yurtimizga sog‘-omon qaytib kelishlarini tilaymiz.

Hayit bayrami arafasida Makkai mukarramada bo‘lib turgan O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, hurmatli muftiyimiz shayx Nuriddin Xoliqnazar hazratlari bilan telefon orqali bo‘lgan muloqotimizda yurtdoshlarimizning muqaddas haj ibodatini mukammal ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratilganini u kishi alohida ta’kidlab o‘tdilar. Umid qilamizki, hojilarimiz Vatanimizga qaytgach jamiyatimizdagi mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, yoshlar tarbiyasi hamda oilalar totuvligini kuchaytirishda ibrat va namuna ko‘rsatadilar.

Muhtaram yurtdoshlar!

Mana shu qutlug‘ lahzalarda turli zaruratlar bilan xorijiy ellarda bo‘lib turgan vatandoshlarimizni ham samimiy tabriklab, ularga sog‘lik-omonlik, baxt va omad tilaymiz.

Dunyoning uzoq-yaqin mamlakatlaridagi dindoshlarimizga ham qizg‘in qutlovlar yo‘llab, ularning xalqlari va mamlakatlariga tinchlik, ravnaq va farovonlik tilab qolamiz.

Ilohim, jahonning turli mintaqalarida davom etayotgan urush va janjallar tezroq barham topsin! Yer yuzida doimo tinchlik va osoyishtalik barqaror bo‘lsin!

Aziz va qadrli do‘stlar!

Bugun biz ko‘p millatli xalqimiz bilan birga Yangi O‘zbekistonni barpo etmoqdamiz. **Yangi O‘zbekiston – bu yangi hayot, yangi taraqqiyot, baxtli kelajak degani**.

Barchamiz hamjihat bo‘lib, boshlagan islohotlarimizni yanada qat’iy davom ettirsak, bu ulug‘ maqsadga so‘zsiz yetamiz.

Farzandlarimizni albatta bilimli, hunarli, odobli insonlar, chinakam vatanparvar avlod etib voyaga yetkazamiz.

Shu yo‘lda barchamizga baxt va omad yor bo‘lsin!

El-yurtimizni Yaratganning o‘zi panohida asrasin!

Siz, azizlarni muqaddas Qurbon hayiti bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman.

Ulug‘ ayyom barchamizga muborak bo‘lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

E’tirof

**Zurab POLOLIKASHVILI:**

## O‘ZBEKISTON SAYYOHLIK TARAQQIYOTIGA KOMPLEKS YONDASHUV NAMUNASINI KO‘RSATMOQDA

**BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Ijroiya kengashi O‘zbekiston tashabbusini bir ovozdan ma’qulladi.**

O‘zbekistonning Ispaniyadagi elchisi Farrux Tursunov boshchiligidagi delegatsiyaning UNWTO Ijroiya kengashi 121-sessiyasidagi ishtiroki doirasida mamlakatimizning Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish bo‘yicha hukumatlararo komissiya tuzish tashabbusi bir ovozdan ma’qullandi.

Global xavfsiz turizm kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish tashabbusi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil oktabr oyida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Butunjahon turizm tashkiloti Bosh assambleyasining 25-sessiyasida bildirilgan edi.

→3

## O‘ZBEKISTON VA KOREYA XALQLARINING DO‘STONA ALOQALARI TERAN TARIXIY ILDIZLARGA EGA

**Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol mamlakatimizga davlat tashrifi doirasidagi tadbirlar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Samarqandning tarixiy obidalari bilan tanishdi.**

Ko‘hna va navqiron shaharda davlat rahbarlari rafiqalari bilan birga mamlakatimizning “tashrif qog‘ozi”, ajdodlarimiz bunyodkorlik salohiyatining go‘zal ifodasi – dunyoga mashhur Registon maydoniga tashrif buyurdilar. Mirzo Ulug‘bek, Sherdor va Tillaqori madrasalarining mahobati, o‘ziga xos arxitekturasi hammada hayrat va havas uyg‘otadi.

Oliy martabali mehmonlar Registondagi har bir obida, milliy hunarmandchilik mahsulotlari ko‘rgazmalarini hayrat bilan tomosha qildi. Ularga madrasalarning qurilish tarixi, peshtoqlaridagi naqsh va ramzlarning mazmuni haqida so‘zlab berildi.

Amir Temur maqbarasi ziyorati chog‘ida mehmonlarga buyuk bobomizning davlatchilik siyosati, harbiy mahorati, turli mamlakatlar bilan diplomatik aloqalari haqida so‘zlab berildi. Sohibqiron bobomiz va temuriylar davlati o‘z davrining eng ulkan va rivojlangan mamlakati bo‘lgani mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Shundan so‘ng Prezidentlar va ularning rafiqalari “Afrosiyob” muzeyiga tashrif buyurdilar.

Bu muzey Samarqand shahrining uch ming yillik tarixidan hikoya qiladi. Bu yerdagi noyob eksponat va devoriy suratlar butun dunyo sayyohlarini, shu jumladan, koreyaliklarni o‘ziga jalb etib keladi.

VII asrga oid devoriy suratlardan birida Samarqand hukmdorining qadimgi Koreya – Koguryo elchilarini qabul qilish marosimi ham aks etgan. Bu xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stona aloqalarning ko‘p asrlik tarixidan dalolat beradi.

Yaqinda koreyalik mutaxassislar ishtirokida muzeyni restavratsiya qilish ishlari yakunlangan bo‘lib, ular doirasida binoning ichki va tashqi qiyofasi mukammal qilib yangilandi.

Janubiy Koreya Prezidenti tarixiy ashyolarni hayrat va e’tibor bilan tomosha qilar ekan, xalqlarimiz o‘rtasidagi aloqalar uzoq o‘tmishga borib taqalishini, bu do‘stlik va hamkorlik bundan keyin ham bardavom bo‘lishini ta’kidladi.

Yetakchilar madaniy merosni asrash borasidagi ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish muhimligini qayd etdilar.

So‘ng oliy martabali mehmonlar Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi va muzeyida bo‘ldi.

Amir Temurning suyukli nabirasi bo‘lgan Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek buyuk astronom olim va hukmdor sifatida ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo‘shgan. O‘rta asrlardayoq noyob rasadxona kashf qilib, osmon jismlarini juda aniq o‘rgangan. Uning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari dunyo astronomiyasida muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

Ekskursiyaning oxirgi manzili “Buyuk Ipak yo‘li” xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” tarixiy-etnografik majmuasi bo‘ldi. Bu yerda mehmonlarga xalqimizning betakror badiiy, hunarmandlik va musiqiy madaniyati namoyish etildi.

Tashrif tadbirlari yakunlanganidan so‘ng aeroportda Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol va rafiqasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va rafiqasi kuzatib qo‘ydilar.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Imom Buxoriy maqbarasini ziyorat qildi.

Qur’on tilovat etilib, duo o‘qildi.

Ulamolar bilan bo‘lgan suhbatda ilm-ma’rifat rivojiga yaratilayotgan sharoitlar, yoshlarni vatanparvarlik va shukronalik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash haqida so‘z yuritildi.

Majmua hozirgi kunda yangidan barpo etilmoqda. Bu yerdagi qurilish-pardozlash ishlari ko‘zdan kechirildi.

Shu bilan Prezidentimizning Samarqandga tashrifi yakunlandi.

**O‘zA.**

Daxldorlik

## HOJILARIMIZNING EZGU TASHABBUSI

*Joriy yil 5-iyun kuni Prezidentimizning Saudiya Arabistonida bo‘lib turgan muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan haj mavsumi jarayonlari, Makka va Madina shaharlarida ziyoratchilarga yaratilgan sharoitlar va hamyurtlarimiz kayfiyati to‘g‘risida o‘tkazgan suhbatlari yurtimiz musulmonlari tomonidan tarixiy voqea sifatida baholandi.*

Kuni kecha O‘zbekistondan borgan 15 ming nafar hojilarimiz Haj amallarini ado etish uchun Arafot hududida jamlandilar. Shayx Nuriddin Xoliqnazar Prezidentimizning yurtimiz hojilariga bildirgan ezgu tilaklarini barcha vatandoshlarimizga yetkazdi. Hojilarimiz bunday yuksak e’tiborni katta xursandchilik bilan qabul qildilar va jonajon Vatanimizning tinchligi, xalqimiz farovonligi, Prezidentimizning uzoq yillar barchamizga bosh bo‘lib yurishlarini Alloh taolodan so‘rab duo qildilar.

Davlatimiz rahbari tomonidan ko‘rsatilgan e’tibordan ruhlangan hojilarimiz shayx Nuriddin Xoliqnazar boshchiligida ezgu tashabbus loyihasini ishlab chiqdilar. Unga ko‘ra o‘zbekistonlik hojilar yurtga qaytganlaridan keyin “Yangi O‘zbekiston fidoyisi bo‘lib, ma’naviyat targ‘ibotchisiga aylanamiz” shiori ostida faoliyatni yo‘lga qo‘yadilar.

Tashabbus doirasida bugungi murakkab zamonda jonajon xalqimizni birlashtirib, ona Vatanimiz taraqqiyotiga xolis xizmat qilish, aholi orasida tinchlik-osoyishtalikka yo‘naltirilgan targ‘ibot ishlarini olib borish, shukronalik hissini yanada kuchaytirish va daxldorlik tuyg‘usini oshirishga qaratilgan tadbirlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, hojilarimiz mahallalarda adashganlar bo‘lmasligiga erishish, jamiyatda ahil-inoqlikni mustahkamlash, oilalar totuvligini ta’minlash, yoshlarni ona Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish, muammoli va ajrim yoqasidagi oilalarni isloh qilishga qaratilgan ishlarni ham amalga oshiradilar.

Loyihadan ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarga moddiy va ma’naviy ko‘mak berish, xayriya, mehr-muruvvat va yordam ko‘rsatish ishlarini ko‘paytirish, o‘z navbatida, turli marosimlar, to‘y-ma’rakalarda dabdababozlik, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikka yo‘naltirilgan targ‘ibot tadbirlari ham o‘rin olgan.

Barcha hojilarimiz yurtimizga qaytganlaridan so‘ng ushbu tashabbuslarni qat’iy amalga oshirishga o‘z hissalarini qo‘shish niyatida ekanliklarini bildirdilar.

# OLIY DARAJADA BO‘LIB O‘TGAN MUVAFFAQIYATLI MUZOKARALAR KO‘P QIRRALI HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING UZOQ MUDDATLI MAQSAD VA MEXANIZMLARINI BELGILAB BERDI

**Koreya Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi va oliy darajadagi samarali muzokaralar natijalari Janubiy Koreya ekspert doiralari va ommaviy axborot vositalari diqqat markazida bo‘ldi.**

*Tahlilchilar o‘z sharhlarida oliy darajadagi O‘zbekiston – Koreya Respublikasi sammitining turli jihatlariga to‘xtalish barobarida uning yakunlari bo‘yicha siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi belgilab olinganini qayd etmoqda.*



**Choy Jin YONG,**
**“Herald Media Group” kompaniyasi prezidenti:**



– Biz Koreya Respublikasi Prezidentining Markaziy Osiyoning 3 ta mamlakatiga davlat tashrifi muvaffaqiyatli yakunlanganiga guvoh bo‘ldik. Ushbu muhim voqea doirasida koreys xalqi O‘zbekiston bilan munosabatlarni mustahkamlashga alohida qiziqish bildirdi, salmoqli natijalar va hamkorlikni yangi bosqichda kutmoqda.

Tashrif mamlakatlarimiz diplomatik munosabatlari tarixida yangi sahifa ochdi va ikki davlat rahbarlari o‘rtasida o‘zaro tushunish hamda ishonchni mustahkamladi. Bu esa keng qamrovli hamkorlikni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Prezidentlar madaniy-gumanitar almashinuvni yanada kengaytirishga alohida e’tibor qaratdilar. Sababi madaniy aloqalar, tajriba almashish xalqlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda, bu o‘zaro anglashuvni chuqurlashtirish va diplomatik aloqalarni mustahkamlashda, ayniqsa, muhimdir.

Prezident bilan birga katta delegatsiya – yirik korporatsiya va kompaniyalar rahbarlari, turli vazirliklar vakillari O‘zbekistonga tashrif buyurib, o‘zbek sheriklari bilan qator hamkorlik shartnomalarini imzoladilar. Bu ikki tomonning iqtisodiy va texnologik aloqalarni rivojlantirish borasidagi jiddiy niyatini tasdiqlaydi.

Ishonchim komilki, ushbu tashrifdan keyin energetika, elektronika va kimyo sanoati, qishloq xo‘jaligi, shaharsozlikni rivojlantirish va boshqa muhim sohalardagi sheriklik yanada kengayadi.

Prezidentimizning O‘zbekistonning boy madaniyati va tarixi ramzi bo‘lgan Samarqandga tashrifi xalqlarimiz o‘rtasidagi madaniyatlararo almashinuv va do‘stlikning ajoyib namunasi ekanini alohida ta’kidlamoqchiman. Qadimiy va zamonaviy jihatlarni o‘zida mujassam etgan ushbu go‘zal kent O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi azaliy rishtalar va ishonchni yana bir bor tasdiqlovchi platformadir.

Samarqand – qadimiy boy madaniyatni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirgan juda go‘zal shahar. Ushbu kentning Afrosiyob muzeyidagi Koguryo davlatiga tegishli devoriy surat O‘zbekiston va Janubiy Koreya xalqlarining do‘stligi asrlar davomida saqlanib kelinayotganidan guvohlik beradi.

Oliy martabali delegatsiya tashrifini yoritish uchun koreys va ingliz tillarida chiqadigan “Korea Herald” gazetasining ikki nafar jurnalisti O‘zbekistonga bordi. Biz ushbu tashrif haqida ko‘plab maqolalar e’lon qildik.

**Du CHJINXO,**
**Koreya Mudofaa sanoati tadqiqotlari institutining xalqaro strategik tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i:**



– Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yol va O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘rtasidagi oliy darajadagi uchrashuvlar muvaffaqiyatli o‘tganini faqat olqishlash mumkin.

Oliy darajadagi muloqot chog‘ida siyosiy, savdo-iqtisodiy, texnologik va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni yanada kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Chunki yangi aloqalar o‘rnatilishi, qator shartnomalarning imzolanishi o‘zaro hamkorlikni chuqurlashtirish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Imzolangan hujjatlar mazmuniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekiston bilan Janubiy Koreya o‘rtasidagi iqtisodiy, texnologik va madaniy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun barchasi nihoyatda muhim.

Ishonchim komilki, ushbu tashrif natijasida ikki davlat o‘rtasidagi alohida strategik sheriklik yaqin kelajakda yanada faol rivojlanadi.

Janubiy Koreya kelgusida oliy darajadagi “Koreya Respublikasi – Markaziy Osiyo” sammitini muntazam o‘tkazib, O‘zbekiston bilan aloqalarni yanada kuchaytirishni rejalashtirmoqda.

**Sim Jin SU,**
**Koreya Respublikasi Savdo, sanoat va energetika vazirligining yangi savdo strategiyasi va siyosati bo‘yicha bosh direktori:**



– Koreya Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonga davlat tashrifi mamlakatlarimiz o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik va almashinuvlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muzokaralar yakunida ikki tomonlama muhim hujjatlar to‘plami imzolandi. Xususan, turli sohalarda muhim kelishuvlarga erishilgani o‘zaro hamkorlikning chuqur darajasi va hamjihatlikka tayyorligini ko‘rsatadi.

Prezident Yun Sok Yolning O‘zbekistonga tashrifi yakunlari mamlakatlarimiz o‘rtasidagi yaqin munosabatlarni yanada mustahkamlashga, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga salmoqli hissa qo‘shishiga ishonaman.

**Li Vu YONG,**
**Inson resurslarini rivojlantirish xizmati raisi:**



– Oliy darajadagi muzokaralar chog‘ida mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq masalalar ham ko‘rib chiqilgani juda muhim. Chunki bu boradagi hamkorlik migratsiya jarayonlarini yaxshiroq tartibga solish va ikki davlat fuqarolarining mehnat huquqlari himoyasiga xizmat qilmoqda.

Ta’lim va kadrlar tayyorlash yo‘nalishida memorandum va kelishuvlar imzolangani tashrifning asosiy natijasi bo‘ldi. Ular qo‘shma ta’lim dasturlarini yaratish, talabalar va o‘qituvchilar almashinuvini o‘z ichiga oladi. Bu esa ikki mamlakatda ta’lim va kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda mehnat migratsiyasida Koreya Respublikasi va O‘zbekiston o‘rtasidagi Ishga ruxsat berish tizimi (E-9 vizasi) muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2024-yilda O‘zbekiston Koreya Respublikasiga turli sohalar, jumladan, o‘rmon va tog‘-kon sanoati kabi yangi yo‘nalishlarga ishchilarini taklif qilish mumkin bo‘lgan davlatlar qatoriga kirdi. Bu O‘zbekiston fuqarolari uchun yangi imkoniyatlar ochadi va har ikki davlat taraqqiyotiga hissa qo‘shadi.

2007-yildan buyon Koreya Respublikasi va O‘zbekiston o‘rtasida mehnat migratsiyasi bo‘yicha hamkorlik faol rivojlanmoqda. Har yili Janubiy Koreyaga “Ye-9” vizasi asosida kelayotgan o‘zbekistonliklar soni ortib borayotgani ushbu dasturning muvaffaqiyati va har ikki tomon uchun ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Janubiy Koreya jamiyati va iqtisodiyotiga o‘zbekistonlik ishchilarni moslashtirish va qo‘llab-quvvatlash ushbu jarayonning muhim qismi bo‘lib, mamlakatimizda mehnat bozorini barqarorlashtirishga xizmat qilmoqda.

**Li Chji YON,**
**Koreya xorijiy tillar universitetining Markaziy Osiyo tadqiqotlari kafedrasi professori:**



– Koreya Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonga davlat tashrifi o‘z vaqtidagi va muhim voqeadir.

Koreya Respublikasi uzoq vaqtdan beri Markaziy Osiyo davlatlari bilan ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni davom ettirib kelmoqda. Ular orasida O‘zbekiston Markaziy Osiyoda Janubiy Koreya bilan alohida strategik sheriklik aloqalarini o‘rnatgan yagona davlat hisoblanadi. Mamlakatlarimiz o‘rtasida kadrlar almashinuvi faollashib bormoqda, jumladan, Janubiy Koreyada istiqomat qilayotgan O‘zbekiston fuqarolari soni boshqa xorijiy davlatlar orasida uchinchi o‘rinda turadi.

Ushbu dalillarning barchasi Janubiy Koreya va O‘zbekiston munosabatlari naqadar yaqin ekanligidan guvohlik beradi.

Ikki xalqni yanada yaqinlashtirish maqsadida kelasi yilni “O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi almashinuvlar yili” deb e’lon qilish, o‘zaro madaniy tadbirlar o‘tkazish taklif etildi. Bu do‘stlik va madaniy aloqalarni mustahkamlash uchun juda muhim bo‘lib, turli sohalarda o‘zaro anglashuv va hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston “Markaziy Osiyoning IT xabi” bo‘lish uchun katta investitsiya kiritmoqda va raqamli texnologiya mutaxassislarini tayyorlashni tezlashtirish uchun butun mamlakat bo‘ylab IT-parklar qurmoqda. Koreya Respublikasi raqamli sohada texnologik ustunlikka ega ekan, O‘zbekistonning milliy rivojlanish strategiyasida ijobiy rol o‘ynashi mumkin. Ikki davlat o‘rtasida IT-kadrlar tayyorlash va raqamli iqtisodiyotga o‘tish sohasida hamkorlik qilish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Bundan tashqari, koreys “nou-xau” va tajribasi hozirda aholisi tez o‘sib borayotgan O‘zbekistonda “aqlli” shaharlar qurilishida qo‘llaniladi. Koreya Respublikasi O‘zbekiston bilan hamkorlikni faol rivojlantirishi mumkin bo‘lgan suv resurslaridan samarali foydalanish, oliy ta’lim kabi ko‘plab salohiyatli yo‘nalishlar mavjud.

Koreya Respublikasi va O‘zbekiston azaldan bir-biriga o‘zaro ishonch hamda hurmat bilan yondashib kelgan. Janubiy Koreya hukumatining kelajakka yo‘naltirilgan munosabatlari O‘zbekistonga iqtisodiy suverenitetga erishish va iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishga yordam beradi. O‘zbekiston esa Koreya Respublikasi sanoatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy mineral resurslar va sifatli ishchi kuchi bilan ta’minlay oladi.

Kelgusida ikki davlat o‘rtasida nafaqat hukumatlar, balki xususiy sektorda ham ko‘proq sohalarda almashinuvni kuchaytirish, hamkorlik darajasi va ko‘lamini yanada kengaytirish zarur, deb o‘ylayman.



**Chjon MINXYON,**
**Koreya xalqaro iqtisodiy siyosat instituti ilmiy xodimi:**



– Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston qadimdan yorqin sivilizatsiyalar vujudga kelgan mintaqa bo‘lgan. Ushbu zamin Yevropani Sharq bilan, Uzoq Sharqni G‘arb bilan, Janubdan Arab va Fors mintaqalarini va Shimoldan Rossiya shaharlarini bog‘laydigan strategik markaz sifatida ham shuhrat qozongan.

Buyuk Ipak yo‘lining markaziy nuqtasi sifatida u turli dinlar, madaniyatlar tutashgan va savdo rivojlangan muhim manzilga aylangan. Savdo faqat tovar ayirboshlash bilan cheklanib qolinmaydi, balki uning haqiqiy qiymati tovarlar tarkibidagi g‘oyalar va bilimlar almashinuvidadir. Erkin savdo orqali erishilgan iqtisodiy farovonlikka asoslanib, O‘zbekiston turli xil va yangi intellektual rag‘batlantirishning doimiy oqimi bilan zamonaviy insoniyat sivilizatsiyasiga aylangan intellektual inqilobning beshigi bo‘la oldi.

Koreya Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi iqtisodiy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Janubiy Koreya kompaniyalarining O‘zbekistonga investitsiya kiritishini faollashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Bu yangi ish o‘rinlarini yaratish va sanoat tarmoqlarini texnologik jihatdan yangilashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu jabhadagi sheriklik ikki davlatga o‘zaro iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun o‘z imkoniyatlaridan unumli foydalanishga sharoit tug‘diradi.

Tashrif davomida transport va infratuzilmani modernizatsiya qilish sohasida muhim kelishuvlar imzolandi. Bu ikki davlatning iqtisodiy sheriklikni chuqurlashtirish va barqaror o‘sishning asosiy elementi bo‘lgan transport aloqalarini yaxshilash va logistikani rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik qilishga tayyorligini ko‘rsatadi.

Ishonchim komilki, Prezident Yun Sok Yolning O‘zbekistonga tashrifi yakunlari ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka katta foyda keltiradi. Uning kengayishi ko‘p yillar davomida jadallik bilan o‘sish sur’atlarini namoyish etib kelayotgan O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantiradi. Janubiy Koreyaning ilg‘or texnologiyalar, infratuzilma va resurslarni rivojlantirish kabi sohalardagi katta tajribasi O‘zbekiston bilan iqtisodiy hamkorlikda sezilarli sinergiya yaratishi mumkinligiga qat’iy ishonaman.

**An Byong XO,**
**Koreya Eksport-import banki (Korea Eximbank) “EDCF” operatsiyalari departamenti bosh direktori:**



– 1992-yilda diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon Janubiy Koreya va O‘zbekiston o‘rtasida, ayniqsa, texnologiya, infratuzilma va energetika sohalaridagi hamkorlik keskin o‘sishga erishdi.

Shu nuqtayi nazardan, Prezident Yun Sok Yolning tashrifi savdo, investitsiya va texnologiya transferi kabi muhim sohalarda sheriklikni chuqurlashtirishga qaratilgan qator muhim kelishuv va memorandumlarni imzolash imkonini berdi. Bu qadamlar nafaqat iqtisodiy almashinuvni oshirishga, balki har ikki davlat biznes va tadbirkorlari uchun yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreyaning yuqori texnologiyalar va innovatsiyalar bo‘yicha tajribasi, shuningdek, O‘zbekistonning boy tabiiy resurslari va strategik joylashuvi umumiy farovonlikka hissa qo‘shadigan qo‘shma loyihalar uchun istiqbollarni ochib beradi.

Tashrif, shuningdek, iqtisodiy munosabatlardagi dolzarb chaqiriq va masalalarni muhokamadan o‘tkazish maydoni bo‘lib, sheriklik aloqalarini kuchaytirish va o‘zaro hamkorlik samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu tashrif natijalarining har ikki davlat iqtisodiyoti tarmoqlariga ijobiy ta’siri seziladi hamda O‘zbekiston va Janubiy Koreyaning uzoq muddatli taraqqiyoti va farovonligiga hissa qo‘shadi.

Janubiy Koreya Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi nafaqat diplomatik aloqalarni yanada jadallashtiradi, balki kelgusida barqaror va o‘zaro manfaatli hamkorlikka zamin yaratadi, shuningdek, har ikki davlatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi va texnologik innovatsiyalarga ko‘maklashadi.

**O Yong JIN,**
**“The Korea Times” gazetasi prezidenti:**



– Koreya Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonga davlat tashrifi ikki mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tarixiy voqeadir.

O‘zbekiston Koreya Respublikasi bilan do‘stona munosabatlarda alohida o‘rin tutadi, mintaqadagi strategik hamkorimiz hisoblanadi. Ushbu tashrif nafaqat do‘stona aloqalarni mustahkamladi, balki transport, energetika, texnologiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sohalar kabi muhim yo‘nalishlarda hamkorlikning yangi istiqbollarini ochdi.

Tashrif chog‘ida ta’lim va ilm-fan sohalaridagi, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish borasidagi hamkorlikka alohida e’tibor qaratildi. Bu jadal o‘zgarib borayotgan jahon mehnat bozori va texnologik innovatsiyalar sharoitida har ikki davlat kelajagi uchun muhim bo‘lgan bilim va tajriba almashishni osonlashtiradi.

Bundan tashqari, axborot texnologiyalari va raqamlashtirish sohasidagi hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha kelishuvga erishildi. Bu O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va aholi turmush sifatini yaxshilashning asosiy elementi bo‘lgan IT infratuzilma va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochadi.

O‘zbekiston nafaqat tabiiy boyliklari bilan, balki Markaziy Osiyoda juda qulay joylashuvga ega, asrlar davomida ko‘plab mamlakatlarni bir-biriga bog‘lovchi ko‘prik, savdo va madaniyat markazi sifatida ham dunyoda e’tibor qozongan. Janubiy Koreya uchun eng muhim hamkor davlat sanaladi.

Yana bir gap, O‘zbekiston bilan Janubiy Koreya o‘rtasidagi munosabatlar bugungi kunda yaqin do‘stlik va ajralmas sheriklikka aylangani ko‘pchilikning xizmatidir. Men, birinchi navbatda, ikki davlat rahbarlarining xizmatlarini e’tirof etaman.

Prezident Yun Sok Yolning tashrifi O‘zbekiston va Koreya Respublikasi nafaqat alohida strategik sheriklar, balki ikki mamlakat va ikki xalq manfaati yo‘lida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga tayyor do‘stlar ekanini tasdiqlaydi.

**“Dunyo” AA.**

**O‘zbekiston – Janubiy Koreya elektrotexnika sanoatidagi sheriklik doirasida Toshkent viloyatida Markaziy Osiyoda birinchi yarimo‘tkazgichlar klasterini barpo etish rejalashtirilgan.**

Munosabat

# YANGI KELISHUVLAR YANGI MARRALARGA YO‘L OCHADI

*O‘zbek va koreys xalqlarini bir-biriga bog‘lab turadigan umumiy jihat va o‘xshashliklar juda ko‘p. Shu sababli, oxirgi yillarda O‘zbekiston va Koreya Respublikasi o‘rtasidagi aloqalar o‘zining yuksak pallasiga, ya’ni alohida strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi.*

Bugun mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan Koreya investitsiyalari umumiy hajmi 7,5 milliard dollardan oshgani hamda so‘nggi yillarda o‘zaro savdo ikki barobar o‘sib, 2,5 milliard dollarni tashkil etgani ham buning yaqqol dalilidir.

Qolaversa, ayni chog‘da yurtimizda koreys sarmoyasi ishtirokidagi 726 ta korxona faoliyat olib bormoqda. Sanoat, energetika, avtomobilsozlik, kimyo, tog‘-kon, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati, IT sohasi va boshqa qator muhim yo‘nalishlarda ham qo‘shma loyihalar amalga oshirilayotir.

Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev taklifi bilan Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning yurtimizga amalga oshirgan bu galgi tashrifi shu aloqalarni yanada mustahkamlaydi, natija va ko‘rsatkichlarni bundan-da yaxshilaydi, deyish uchun barcha asos bor. Negaki, ikki davlat yetakchilari o‘rtasida bo‘lgan muzokaralar chog‘ida o‘zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda yangi reja va marralar belgilab olindi. Bunda, avvalo, hamkorlikning barcha mexanizmiga tizimli tus berish, tovar ayirboshlash hajmini oshirish va o‘zaro savdoda muvozanatni ta’minlashga alohida e’tibor berildi.

Shularga mos ravishda uchrashuvlar doirasida O‘zbekiston Respublikasi bilan Koreya Respublikasi o‘rtasida alohida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va har tomonlama kengaytirishga qaratilgan bitim va hujjatlar imzolandi. Ularda madaniyat, eksport-import, qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon sanoati, energetika, transport, jumladan, temir yo‘l transporti, savdo-sotiq aloqalariga oid juda ko‘plab muhim yo‘nalishlarda hamkorlik qamrab olinganligini alohida ta’kidlamoqchimiz.

Bu boradagi tasavvurlarimiz kengroq bo‘lishi uchun ayrim bitimlarni nomma-nom keltirib o‘tsak.

**Ular quyidagilardan iborat:**

- O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Koreya Eksport-import banki o‘rtasida o‘rta maktablar uchun fan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uskunalarini yetkazib berish to‘g‘risida bitim;
- O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Koreya Eksport-import banki o‘rtasida “Toshkent Farma Park” farmatsevtika tadqiqot va ishlab chiqarish klasterining tadqiqot va o‘quv komponentini tashkil etish (2-bosqich) to‘g‘risida bitim;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan Koreya Respublikasi Xodimlar boshqaruvi vazirligi o‘rtasida davlat xizmatchilari salohiyatini oshirish hamkorlik rejasi bo‘yicha bitim.

O‘zaro uchrashuvlarda qishloq xo‘jaligi sohasida Janubiy Koreyaning “yashil” va “aqlli” texnologiyalarini transfer qilish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Ayni chog‘da, yurtimizda mintaqaviy yuqori texnologik xab tashkil etish bo‘yicha strategik dasturni tayyorlashga kelishib olindi. E’tiborlisi, o‘ta muhim mineral resurslar, yarimo‘tkazgichlar, kimyo, mashinasozlik, “aqlli” qishloq xo‘jaligi, infratuzilma va shaharsozlik, “yashil” energetika sohasidagi hamkorlik shu strategiyaning tayanch yo‘nalishlari sifatida ilgari surildi.

Shuningdek, madaniy-gumanitar sohadagi aloqalar ham yangi bosqichga olib chiqiladi. Shu maqsadda tomonlar 2025-yilni “O‘zbekiston va Koreya o‘rtasidagi almashinuvlar yili” deb e’lon qilishga kelishib oldi. Muhimi, uning doirasida o‘zaro madaniyat haftaliklari, yoshlar, ta’lim, til va sport forumlari, san’at va hunarmandchilik ko‘rgazmalari, turizm tadbirlari o‘tkaziladi.

Ko‘rinib turibdiki, Koreya Respublikasi Prezidentining O‘zbekistonga tashrifi juda samarali kechdi. Albatta, yangi kelishuvlar yangi marralarga yo‘l ochadi. Biz, xalq vakillari esa shu kelishuvlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda mutasaddilarga kamarbasta bo‘lamiz.

**Odiljon IMINOV,**
**Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi.**

# ISHONCHLI VA STRATEGIK SHERIKLIK

*O‘zbekiston va Janubiy Koreya xalqlarini qadimiy do‘stlik rishtalari bog‘lab turadi – ikki xalqning madaniyati, mentaliteti o‘xshash. Garchi ikki davlat orasidagi masofa yaqin bo‘lmasa-da, ular o‘rtasidagi ilm-fan va texnologiyalarning ilg‘or yutuqlarini o‘zaro almashish jarayoni qadim va do‘stona tarixga borib taqaladi. Tomonlarning global hamda mintaqaviy ahamiyatga ega masalalar bo‘yicha ham yondashuvlari o‘xshash yoki yaqin.*

Koreya Respublikasi ham, O‘zbekiston ham ko‘hna tarix va boy madaniyatga ega davlatlar sifatida o‘zining tarixiy-ma’naviy merosini saqlab kelmoqda. Oliy darajadagi ochiq, do‘stona, konstruktiv muloqotlar esa mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko‘tarish imkonini berayotir.

1992-yilda diplomatik munosabatlar o‘rnatilganidan buyon mamlakatlarimiz o‘rtasida mustahkam ishonch va do‘stlikka asoslangan ikki tomonlama aloqalar rivojlandi. Ayniqsa, 2019-yilda Koreya Respublikasi va O‘zbekiston munosabatlari alohida strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilganidan keyin hamkorligimiz yanada yaqinlik kasb etmoqda.

Ikki davlat o‘rtasidagi parlamentlararo aloqalar ham hamkorlikning muhim yo‘nalishiga aylandi. Uchrashuvlar, delegatsiyalar tashrifi, muloqotlar – mamlakatlarimiz parlamentlarida ikki tomonlama qonunchilik asoslarini ishlab chiqish imkonini bermoqda.

Rasmiy Toshkent va Seul o‘rtasida hamkorlik aloqalari ko‘lami ta’lim, fan va madaniyat kabi qator yo‘nalishlarda ham yangi bosqichga chiqmoqda. Bugungi kunda respublikamizda Janubiy Koreyaning 4 ta yetakchi oliy o‘quv yurti filiallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. O‘z navbatida, Janubiy Koreyada 11 mingdan ortiq o‘zbekistonlik talabalar ta’lim olyapti.

Madaniyat sohasidagi aloqalar ham jadal rivojlanmoqda. Madaniy aloqalarni mustahkamlash yo‘lida respublikamizning barcha hududida Koreys milliy madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda. Ularda koreys tili, madaniyati va an’analarini asrab-avaylashga katta hissa qo‘shmoqda.

Iqtisodiyotning barcha sohasida ham keng aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Istiqbolli loyihalar portfeli, “yashil” energiya, raqamli texnologiyalar, mashinasozlik, kimyo sanoati, elektrotexnika, to‘qimachilik sanoati, infratuzilmani rivojlantirish, shaharsozlik va boshqa ko‘plab sohalarni qamrab oladi.

Bugungi kunda Janubiy Koreya kapitali ishtirokida mamlakatimizda 726 ta korxona faoliyat yuritmoqda. E’tiborlisi, ularning 46 tasi joriy yilning yanvar – aprel oylarida tashkil etilgan. To‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilingan investitsiyalarning umumiy hajmi 7,5 mlrd. AQSh dollaridan oshdi. Qolaversa, 40 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda.

Qayd etish joizki, O‘zbekistondan Janubiy Koreya Respublikasiga 50 turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilish uchun fitosanitar ruxsatnoma olingan. 2020-yil aprel oyida ikki mamlakat iqtisodiy hamkorligini kengaytirishning muhim platformasi “Koreya – O‘zbekiston biznes uyushmasi” (KUBA) Janubiy Koreya Savdo, sanoat va energetika vazirligi tomonidan ro‘yxatga olingan.

Joriy yilning mart oyida esa Seulda birinchi O‘zbekiston – Janubiy Koreya savdo uyi ochildi. Bu ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish tarixida muhim qadam bo‘ldi. Janubiy Koreya bozorida O‘zbekiston tovar va xizmatlarini ilgari surish, ikki davlat tadbirkorlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishbilarmonlik aloqalarini o‘rnatish imkonini yaratadi.

Janubiy Koreya O‘zbekistonning yetakchi savdo va investitsiya hamkorlaridan biri hamdir. Buni o‘tgan yili tovar ayirboshlash 2,5 mlrd. dollarni tashkil etgani va koreys investitsiyalari hajmi 7,5 mlrd. dollardan oshgani misolida ham ko‘rish mumkin. Turistlar oqimi ham yil sayin ortib, Toshkent va Seul o‘rtasida bir haftada 10 ta aviaparvoz amalga oshirilayotir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan Koreya Respublikasi Prezidenti Yun Sok Yolning 13 – 15-iyun kunlari amalga oshirgan davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni hamma yo‘nalishlarda jadal rivojlantirishda yangi sahifa ochishi, shubhasiz. Zero, tashrif doirasida ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida bo‘lib o‘tgan muzokaralarda hamkorlikning barcha sohasi va yo‘nalishlarini qamrab olgan alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Ikki mamlakat rahbarlari huzurida sheriklikning ko‘plab sohalarini qamrab olgan 17 ta hujjat, ayniqsa, Alohida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va har tomonlama kengaytirish to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonotning imzolangani ushbu tashrifning eng muhim jihatlaridan biri bo‘ldi, desak, ayni haqiqat.

Mazkur tashrif davlatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni sifat va mazmun jihatdan boyitgan holda o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada yuqori bosqichga ko‘taradi.

**Muhammadjon VALIYEV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

# DINU DIYONAT QADR TOPGAN YURTDA ULUG‘ AYYOM SHUKUHI

*Bismillahir Rohmanir Rohim.*

*Avvalo, barcha yurtdoshlarimizni dinimizning eng ulug‘ bayrami – Qurbon hayiti bilan O‘zbekiston musulmonlari idorasi Ulamolar Kengashi va o‘z nomimdan samimiy muborakbod etaman.*

*Bugungi saodatli kunlar uchun shukronalar aytib, Qodir Allohdan yurtimizga qut-baraka, tinchlik-ofiyat, xalqimizga baxt-saodat, farzandlarga ilm-ma’rifat, dinu diyonat so‘rab duolar qilamiz.*



**Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR, O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy.**

Hidoyat sari

Alloh taolo bu ulug‘ kunlarni butun Islom olami, xususan, yurtimiz uchun fayzli va barakotli qilsin. Bunday bayramlarni tinchlik-omonlikda, sihat-salomatlikda bardavom nishonlashni O‘zi nasib etsin.

Haq taolo Islom dini ila bandalarini siylab, mukarram etar ekan, ular uchun eng ulug‘ bo‘lgan kunlarni bayram qilib berdi. Mo‘tabar manbalarda ushbu saodatli onlarda xursandchilik qilish haqida ko‘p tavsiyalar kelgan. Imom Abu Dovud rivoyat qilgan hadisi sharifda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: **“Qurbonlik kunini bayram qilishga amr qilindim. Uni Alloh bu ummat uchun xos bayram qilib berdi”**, dedilar.

Alloh taoloning O‘zi Qurbon hayiti kunida xursandchilik qilishga amr etgan. Zero, ushbu kunni biz ummatlarga xos bayram qilib bergani uning beqiyos ahamiyatidan darakdir.

Zulhijja oyining 10-kunida Qurbon hayiti nishonlanadi. Alloh taolo “Fajr” surasida: *“Tongga qasam. O‘n kechaga qasam. Juft va toqqa qasam”*, deb marhamat qilgan. “O‘n kechaga qasam”dan murod zulhijja oyining dastlabki 10 kunidir, “juftga qasam”dagi “juft”dan murod, zulhijja oyining o‘ninchi kuni, “toq”dan murod esa to‘qqizinchi kunidir.

Imom Nisoburiy aytadilarki, *Alloh taoloning ushbu o‘n kechaga qasam ichishi, bu kunlarning nechog‘li sharafli va ulug‘ ekaniga dalolat qiladi hamda unda ikki dunyo uchun manfaatlar borligini bildiradi*.

Imom Termiziy bobomiz rivoyat qilgan hadisda esa Rasululloh alayhissalom: *“Alloh uchun ibodat qilishga zulhijjaning o‘n kunidan sevimliroq kun yo‘q. Uning har kunlik ro‘zasi bir yillik ro‘zaga, har tundagi ibodat Laylatul qadrdagi ibodatga tengdir”*, deganlar.

Boshqa bir hadisi sharifda: *“Bu kunlarda tahlil, takbir va hamdu sanoni ko‘paytiringlar”*, deb marhamat qilingan.

Demak, ushbu kunlarda Allohning zikrini har qachongidan ko‘paytirib, behisob hamdlar aytishimiz kerak.

Allohga shukrki, so‘nggi yillarda barcha soha qatori diniy jabhada ham misli ko‘rilmagan yangilanishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqot markazlari, Fatvo markazi tashkil qilinishi, masjidlar ochilishi, Qur’on kurslari ta’sis etilishi, qadamjolar obod bo‘lishi, haj-umra qiluvchilar soni oshirilishi hamda ajdodlarimiz merosi ilmiy jihatdan o‘rganilishi ijobiy islohotlarning yaqqol natijasidir.

Bugun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga Islom dini mohiyatini to‘g‘ri tushuntirish, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois yurtimizda ijtimoiy-ma’naviy muhitni yaxshilash, diniy ta’lim sifatini yanada yaxshilash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Dunyodagi nufuzli islomiy tashkilotlar a’zosi bo‘layotgan ulamolar safi kengayib bormoqda. Bu ham bo‘lsa, diniy-ma’rifiy sohada olib borilgan islohotlarning xalqaro e’tirofi, xalqimizning Islom dini rivojiga qo‘shayotgan hissasiga berilgan yuksak bahodir.

Cheksiz shukronalik bilan aytishimiz kerakki, muqaddas zaminga haj ibodatini ado etishga kelgan 15 ming nafar hojilarimiz bilan birga Makkai mukarrama, Arafot va Mino kabi muqaddas joylarda jonajon xalqimiz haqqiga xayrli duolar qildik. Mana shunday duolar sharofati bilan yurtimiz yanada ravnaq topadi, insha Alloh.

Alohida ta’kidlash joizki, muhtaram Prezidentimizning telefon orqali muborak haj ziyorati uchun yaratilgan sharoitlar va salomatligimiz haqida so‘ragani hamda har kuni holimizdan xabardor bo‘lib turgani ibodat zavqi bilan yurgan hojilarni cheksiz darajada mamnun etdi.

Dunyo tarixida davlat rahbarining ziyoratchilar holidan xabar olish uchun shaxsan tashabbus ko‘rsatishi hamda Makkaga qo‘ng‘iroq qilishi hech kuzatilmagan holatdir. Mana shunday e’tibor va ehtiromni arabistonlik mutasaddilar ham yuqori baholab, Yurtboshimizga hurmat va duolarini izhor etdilar.

Yurtimiz tarixida ilk marta O‘zbekiston hojilariga mamlakat Prezidenti darajasida ehtirom ko‘rsatilayotgani, buni har bir ziyoratchi yurakdan his etib, ko‘zlarida yosh ila duolar qilayotganini alohida e’tirof etamiz.

O‘z navbatida, o‘zbekistonlik hojilar yurtga qaytgandan keyin **“Yangi O‘zbekiston fidoyisi bo‘lib, ma’naviyat targ‘ibotchisiga aylanamiz” degan ezgu tashabbusni** bir ovozdan ilgari surishga ahd qildilar.

Ta’kidlash joizki, taniqli ulamolar, imom-domlalar va qori ziyoratchilar tomonidan Makkai mukarramada Qur’oni karimni 10 ming marta xatm qilib, yurtimizga tinchlik, xalqimizga farovonlik va islohotlar bardavomligini tilab duolar qilindi.

Darhaqiqat, hayit bayramlari qadimdan o‘lkamizda xalqimizga xos mehr-muruvvat va saxovat ifodasi bo‘lib kelgan. Bu haqda Alloh taolo bunday marhamat qiladi: **“Kimki Allohning shiorlari** (qurbonliklar)**ni ulug‘ deb bilsa, bas, albatta, bu dillarning taqvosidandir”** (Haj surasi, 32-oyat).

Bu muborak kunlar muqaddas dinimizning ulug‘ shiorlaridandir. Ulug‘ allomalarimiz: *“Hayit kunlari shodlikni izhor qilish dinning shiorlaridandir”*, deganlar.

Shu bois iyd kunlarida tabarruk otaxon, munis onaxonlar, qarindosh-urug‘lar, yoru birodarlar, beva-bechoralar, bemorlar holidan xabar olaylik! Ularga bayram kayfiyatini ulashaylik.

Zero, bu kunlarda xayru saxovatimizni, mehr-oqibatimizni har qachongidan ko‘ra ko‘proq namoyon qilishimiz lozim.

Ushbu ayyom kunlari qilinadigan afzal amallar haqida gap ketganda, bu damlarda eng ulug‘ ibodat, shubhasiz, qurbonlik qilishdir. Imom Daylamiy rivoyat qilgan hadisi sharifda Rasululloh alayhissalom: **“Qurbonliklaringizni kattaroq qilinglar, chunki ular Sirot ko‘prigida sizlarga ulov bo‘ladi”**, deganlar.

Qurbonlik ibodat bo‘lishi bilan birga, uning ijtimoiy ahamiyati ham beqiyos. Zero, qurbonlik – jamiyatda kishilar o‘rtasida insoniy fazilatlar rivoj topishiga xizmat qiluvchi vosita. Chunki qurbonlik go‘shtidan va taomidan ehson qilish qalblarni yumshatib, mehr-muhabbat rishtalarini mustahkamlaydi.

Alloh butun dunyo mo‘min-musulmonlariga Qurbon hayitini muborak aylasin, tinchlik-xotirjamlik ato etsin, ibodatlarimizni dargohida husni qabul etsin, ona Vatanimizni obod, xalqimiz hayotini yanada farovon qilsin!

Aziz yurtdoshlar, Qurbon hayitingiz muborak bo‘lsin!

**Zurab POLOLIKASHVILI:**

# O‘ZBEKISTON SAYYOHLIK TARAQQIYOTIGA KOMPLEKS YONDASHUV NAMUNASINI KO‘RSATMOQDA




1 Qayd etilishicha, bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan ziddiyatlar va beqaror vaziyat turizm rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu munosabat bilan sayyohlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha yagona yondashuvni ishlab chiqish zarurati tug‘ilmoqda va taklif etilayotgan kodeksning ishlab chiqilishi yanada xavfsiz, barqaror va adolatli turizm ekotizimini yaratish yo‘lidagi oldinga tashlangan qadamdir.

Ishlab chiqilgan kodeks turizmni barqaror rivojlantirish vositalaridan biriga aylanishi va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda madaniy merosni asrab-avaylash bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga olishi kutilmoqda.

UNWTO bosh kotibi Zurab Pololikashvili sessiyadagi nutqida O‘zbekiston hukumatiga respublikaning tashkilot faoliyatiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun minnatdorlik bildirib, O‘zbekiston mazkur tuzilmaning eng faol ishtirokchisi ekanligini va nafaqat jahon turizm industriyasini rivojlantirishga, balki BMT imijini oshirishga ham hissa qo‘shayotganini alohida ta’kidladi.

Bosh kotib O‘zbekiston sayyohlik taraqqiyotiga kompleks yondashuv namunasini ko‘rsatayotganini, bu mintaqaning boshqa mamlakatlari uchun o‘rnak bo‘lishi mumkinligini ham qayd etdi.

**“Dunyo” AA.**
Barselona

# SUD-HUQUQ YO‘NALISHIGA OID MUROJAATLAR TINGLANDI

*Олий суд раҳбарияти Самарқанд вилояти аҳолиси учун Каттақўрғон ва Жомбой туманларида кенгайтирилган сайёр қабуллар ўтказди.*

Sayyor qabul

*Oliy sud rahbariyati Samarqand viloyati aholisi uchun Kattaqo‘rg‘on va Jomboy tumanlarida kengaytirilgan sayyor qabullar o‘tkazdi.*

Yuzma-yuz muloqot chog‘ida fuqarolarning sud-huquq yo‘nalishiga oid murojaatlari tinglandi. Xususan, 64 nafar fuqaro Oliy sud rahbariyati hamda ishchi guruhi qabulida bo‘lib, o‘z muammolarini bayon etdi. 32 ta jinoyat ishlari bo‘yicha, 21 ta fuqarolik, 6 ta iqtisodiy ishlar bo‘yicha va 4 ta ma’muriy sudlarga murojaatlar qabul qilindi.

Murojaatlar qonun doirasida ijobiy hal qilindi va ayrimlariga huquqiy tushuntirish berildi.

**“Xalq so‘zi”.**

Mutlaq shaxsiy fikr

# O‘YNAB GAPIRSANG HAM, O‘YLAB GAPIR!

*Yaqinda Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi ishlab chiqilib, qonunchilik tashabbusi huquqi asosida quyi palataga kiritilgani meni behad quvontirdi. Mustaqil O‘zbekistonning 33 yillik tarixida parlamentning ushbu qonunni qabul qilishga qaratilgan harakati tahsinga sazovor.*



O‘zbekiston – tarixi qadimiy, o‘tmishi boy, madaniy merosi bebaho mamlakat. Ayni shu jihatlarga qaramasdan, ko‘p yillar davomida yurtimizga nisbatan aytilgan nohaq gaplarga chidab keldik. Ularga yuzaki qaradik, o‘yladikki, “gapiradi-qo‘yadi”. Aksincha, bu kuchaysa-kuchaydiki, to‘xtamadi.

Shu bois bunday holatlarga barham berishning huquqiy mavqei belgilanishi endilikda “og‘zi botir” har xil “siyosatchi”larni, “aql markazlari”ni tiyib qo‘yishga, ularga nisbatan ham cheklovlar, taqiqlar tatbiq etishga qonuniy asos bo‘ladi.

Shubhasiz, har bir davlatning, o‘z suvereniteti va hududiy yaxlitligini muhofaza etishni maqsad qilgan mamlakatning qonunchiligida xuddi shunday norma bo‘lish kerak. Biz mentalitetimizga xos bo‘lgan bag‘rikenglik, ochiqko‘ngillik, mehmondo‘stlik tufayli bu narsalarga balki ko‘p ham e’tibor bermagandirmiz, lekin gap mamlakat nufuzi – tarixi, o‘zligi, uning dunyo tamadduniga qo‘shgan buyuk hissasi haqida ketar ekan, bunday vaziyatda bag‘rikenglik suiiste’mol qilinishiga yo‘l qo‘ymasligimiz joiz. Biz uchun bu yerda milliy manfaatlarimiz, nuqtayi nazarimiz muhim va shu sabab ham bunday qonun loyihasi qabul qilinishi judayam to‘g‘ri bo‘ladi.

Ayni chog‘da bu bugun O‘zbekistonning dunyo siyosiy sahnasida tutgan o‘rni jihatidan mana shunday muhim pallaga kelganligimizni ham bildiradi. Demak, biz siyosiy mustaqilligimizni mustahkamlash, o‘zligimizni anglatish, qolaversa, dunyoda o‘z o‘rnimiz qandayligini ham eslatib qo‘yyapmiz. Shu jihatdan o‘ylaymanki, ushbu hujjatni tezroq qabul qilish maqsadga muvofiq.

Qonun loyihasida mamlakatda bo‘lishi nomaqbul, deb topilgan shaxslarni bu haqdagi tegishli xabarnomani olgan sanadan e’tiboran 10 kun ichida ixtiyoriy ravishda O‘zbekistondan chiqib ketishi kerakligi belgilanmoqda. Taklifim: bunday shaxslarning mamlakatimizni 10 kun emas, 3 kun muddat ichida tark etishini belgilab qo‘yish maqsadga muvofiq. Zotan, Vatanimiz haqida so‘z yuritadigan odam avval o‘ylab, keyin gapirishi kerak. Gap O‘zbekistonning davlat suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini mustahkamlash, shu bilan birga, xalqimizning sha’ni, qadr-qimmati va tarixi hurmatga loyiqligini ta’minlash haqida ketar ekan, ushbu qonun loyihasining qabul qilinishini qo‘llab-quvvatlayman.

**Sherzodxon QUDRATXO‘JA,**
**O‘zbekiston Milliy media birlashmasi boshqaruvi raisi, professor.**

O‘zbekiston eksportchilari uyushmasi tomonidan 24 – 26-iyun kunlari Olmaota shahrida “O‘zbekiston – Qozog‘iston biznes forumi – 2024” tashkil etiladi.

# DIYORIMIZ BAG'RIDAGI DURDONA – FARG'ONADA BUGUN TONGLAR O'ZGACHA

*Bugun Farg'onaga tashrif buyurgan kishi borki, jadal ravishda viloyat bo'ylab amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lamini, farg'onaliklar kayfiyatida, yuz-ko'zida yaqqol aks etgan shukronalikni his qiladi. Shahar qiyofasini olayotgan qishloqlar, yangi barpo qilinayotgan turarjoy mavzelari, rivojlanib borayotgan boshlang'ich, umumta'lim va oliy o'quv muassasalari xalqning ko'z o'ngida yangi O'zbekistonning timsoli o'laroq namoyon bo'lmoqda.*





## Mushohada

E'tirof etish kerakki, bundan 6-7 yil avval mamlakatda ro'y bera boshlagan islohotlar to'lqinida Farg'onaga ham yangi nafas, yangi hayot kirib keldi. Bu yillar farg'onaliklar uchun taraqqiyot yillari – "Yangi Farg'ona" davri bo'ldi. Demak, yangi O'zbekiston durdonasi Farg'onada bugun tonglar o'zgacha otmoqda.

Har bir tuman, mahalla, qishloq aholisining hayot tarzi, maqsadi va qarashlari butunlay o'zgacha. Quvonarlisi, viloyatimizdan uddaburon, halol, yurtparvar tadbirkorlar ko'plab yetishib chiqmoqda. Ular ishlab chiqarayotgan turli mahsulotlar bugun nafaqat mamlakat bozorida, balki jahonning eng nomdor savdo markazlarida o'z xaridorlarini topib ulgurgan.

Innovatsiya shiddati bilan taraqqiy etayotgan agrar va industriya sohasi, xalqaro hamkorlik tizimi, jadal bunyodkorlik ishlari, ayniqsa, turizm tarmog'i rivoji Farg'onaga yangicha hayot bag'ishlamoqda. Ayniqsa, iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish va tadbirkorlikka keng yo'l ochish, yangi ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish hamda aholining turmush farovonligini oshirish, tibbiy xizmatlar va ta'lim sifatini jahon standartlariga moslashtirish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish borasida erishilgan natijalarni har bir farg'onalik o'z hayotida sezdi, his etdi. Qisqa muddatda viloyatning yalpi hududiy mahsuloti hajmi qariyb 56 trln. so'mdan ortib ketdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan qurilish materiallarini ishlab chiqarish tizimi Farg'onaning drayveriga aylandi, bir paytlar 50 mln. dollar xorijiy investitsiya olib kirish muammo bo'lgan Farg'onaga birgina 2022-yilning o'zida 957,4 mln. dollar investitsiya jalb qilindi. Quvonarlisi, viloyatda elektromobillar ishlab chiqarilmoqda.

Aytish kerakki, davlatimiz rahbarining yangi O'zbekistonni bunyodkorlik maydoniga aylantirgani Farg'onada ko'zga yaqqol tashlanadi. Bir paytlar yangi uylar 2-3 yilda bir qurilgan bo'lsa, hozirda Farg'onada qisqa muddat ichida butun boshli shaharchalar barpo etilyapti.

Keyingi yillarda xorijlik sayyohlarni viloyatimizdagi tarixiy obidalar, ziyoratgohlarga jalb etishning bir necha barobar ortgani, muqaddas qadamjolar, milliy an'ana va qadriyatlarimizga e'tibor kuchayib borayotgani xizmat ko'rsatish tizimi rivoji va aholining ish bilan ta'minlanish ko'rsatkichlarida ham yaqqol aks etmoqda. Bunda mehmonlarga jahon andozalariga mos darajada xizmat ko'rsatishning yo'lga qo'yilayotganligi alohida ahamiyat kasb etayotir.

Darhaqiqat, bugun Farg'onaga uzog'u yaqindan, dunyo kentlaridan mehmonlar oqimi, turistlar tashrifi oshib bormoqda. Viloyatda davlatimiz rahbari topshiriqlarining ijrosi izchil bajarilmoqdaki, natijada turizm infratuzilmasi yaxshilandi, sohaga kiritilayotgan investitsiya hajmi kengaydi.

Viloyat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan xorijiy sarmoyalar haqida gap ketganda, ayni yo'nalishdagi ishlar bugungi kunda keng quloch yozayotganini e'tirof etmoq joiz. Xususan, Ozarbayjon kompaniyasi Farg'onada mini-GESlar tarmog'ini barpo qilishni, Xitoyning "Cheng Li special Automobile", "Baishan Zhongtian Development" hamda "Aipuri Steel Plate" kompaniyalari esa viloyatda yuklash texnikalari ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda.

Shuningdek, endilikda rossiyalik investorlar guruhi IT sohasidagi startaplarga sarmoya kiritadi hamda viloyatimizni IT-xizmatlar yo'nalishida yirik autsorsing markaziga aylantirishga ko'maklashadi. Jumladan, Rossiyaning Sibir, Ural va Uzoq Sharq mintaqalari investorlarini birlashtirgan "Bolshaya medveditsa" axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, iqtisodiyotni raqamlashtirish, elektron tijorat va logistika sohalarida, shu bilan birga, sanoatning turli yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalarga sarmoya yo'naltiradi.

Turistik islohotlar qatorida Farg'ona viloyati va Xitoyning Chendu shahri o'rtasida qator yo'nalishlarda hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Bunda sanoat, mashinasozlik, qishloq xo'jaligi va turizm sohasi bo'yicha Farg'onada kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan yangi loyihalar qabul qilingan. Yana bir e'tiborli jihat, Xitoyning "Sichuan Shengyakai Fastening Equipment" kompaniyasi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri 10 mln. dollar investitsiya yo'naltirish hisobiga Farg'onada qurilish-montaj pistoletlari ishlab chiqarish loyihasi ilgari surilmoqda.

Ayni chog'da Yaponiya, Singapur va Malayziya investorlari guruhi bilan viloyatimizga qator sohalar bo'yicha investitsiyalar kiritish yuzasidan hamkorlik muzokaralari amaliy bosqichga o'tgan. 50 yildan beri faoliyat ko'rsatib kelayotgan hamda dunyoning qator davlatlarida biologik sun'iy suv havzalari barpo etib, yashil zonalarning landshaft loyihalarini amalga oshirgan Turkiyaning "Cem Botanik" kompaniyasi vakillari esa yashil hududlar yo'nalishida hamkorlik qilishni maqsad qilgan.

Farg'ona viloyati va Eron o'rtasida o'zaro savdo va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" shakllantirildi. Shuningdek, yaqinda Quvasoyda 40 mln. dollar Xitoy investitsiyasi hisobiga sifatli keramogranit plitalari ishlab chiqarish zavodi qurilishi boshlandi.

"Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasi hamda Belarusning "Gomel-Raton" erkin iqtisodiy zonasi o'rtasida hamkorlik kelishuvi imzolanishi rejalashtirilgan.

Shu o'rinda e'tirof etish zarurki, keyingi yillarda Farg'ona shahri va Yekaterinburg o'rtasidagi hamkorlik ham yangi bosqichga ko'tarilgan. Jumladan, yaqinda viloyat delegatsiyasining Rossiya Federatsiyasiga amaliy tashrifi davomida imzolangan investitsiya kelishuvlari va savdo shartnomalarining umumiy qiymati 562 mln. dollardan oshdi.

Bu islohotlar ko'lami oliy ta'lim tizimida ham yangi bir davrni boshlab berdi. Farg'ona davlat universiteti misolida aytish mumkinki, bir asrlik tarixga ega oliygoh ham o'z faoliyatida yangilanish bosqichini amalga oshirdi. Ispaniyaning "Webometrik", Avstraliyaning "UniRank", Gruziyaning "RUR" kabi nufuzli xalqaro reyting tashkilotlari ro'yxatida yuqorilab kelayotgan universitet endilikda Buyuk Britaniyaning nufuzli "THE" (Times Higher Education) agentligi reytingida 14 indikator bo'yicha yuqori o'ringa chiqdi.

Sanayversak, bunday yutuqlarimiz ko'p. Eng muhimi, kundan-kunga farg'onaliklarda bugungi kunidan rozilik, islohotlarga daxldorlik tuyg'usi oshib bormoqda. Shu bois hayoti, taqdiri, kelajagidan ko'ngli to'lib, chinakam baxtni his etayotgan viloyat ahli Prezidentimiz olib borayotgan islohotlarda faol bo'lishga hamisha shay.

**Bahodirjon ShERMUHAMMADOV,**
**Farg'ona davlat universiteti rektori, professor.**

## Biz va jahon

***Buyuk Britaniyaning nufuzli "The Guardian" gazetasida "Asr ko'rgazmasi: O'zbekistondan Londongacha bo'lgan Ipak yo'li" sarlavhali maqola e'lon qilindi.***

### ILK BOR VATANIMIZNING BOY MADANIY MEROSIGA BAG'ISHLANGAN KO'RGAZMA OCHILADI

Nashrda Britaniya muzeyida ilk bor VII asrda yaratilgan olti metr uzunlikdagi monumental devoriy surat, shuningdek, VIII asrga oid fil suyagidan yasalgan dunyodagi eng qadimgi shaxmat taxtasi kabi Samarqand muzeylari kolleksiyalaridan namunalar namoyish etilishi ta'kidlangan.

Ma'lum qilinishicha, eksponatlar joriy yilning sentabr oyida ochiladigan ko'rgazma uchun qadimiy Samarqand shahridan Buyuk Britaniyaga yetkaziladi. "Tarixda birinchi marta O'zbekiston muzeylaridagi eksponatlar Britaniyaga keltirilmoqda", deyiladi maqolada.

Qayd etilishicha, ushbu ko'rgazmada 300 dan ortiq eksponatlar 29 ta milliy va xalqaro muassasa tomonidan taqdim qilinadi.

"Tuya, ot va fil minayotgan odamlar tasvirlangan olti metrli devoriy surat Samarqanddagi muzeyning "Elchilar zali"da joylashgan. 660-yillarga oid va XX asrning 60-yillarida topilgan ushbu qadimiy surat mintaqada yirik savdogarlar bo'lgan qadimgi so'g'dlar tomonidan yaratilgan noyob san'at namunasidir", deya ta'kidlangan "The Guardian" gazetasida.

Maqolada, shuningdek, 2025-yilning fevraliga qadar davom etadigan ushbu ko'rgazma chiptalari yaqin kunlarda sotuvga chiqarilishi xabar qilingan.

**"Dunyo" AA.**
London

## Kitobxonlik

# BOLAGA ISHTIYOQ BERADIGAN MUHIT ZARUR

*Bolada keng dunyoqarash, teran fikrlashning shakllanishi, savodxonlik, yozma va og'zaki nutq boyligining ortishi, aql va tarbiyadagi yetuklik – bularning barchasiga, avvalo, kitobxonlik orqali erishish mumkin.*

*Ammo bolani kitobga qiziqtirish, uning qalbida kitobga mehr uyg'otish oson ish emas. Balki yoshlarga majburlab ham kitob o'qitish mumkindir, lekin uqtirib bo'lmaydi. Aslida bolaning kitobga mehri, o'qishga ishtiyoqini oshirishda, birinchi navbatda, oilaviy muhit, atrofdagilarning bu boradagi ibratli ta'siri muhim rol o'ynaydi. Atrofida o'qishga ishtiyoq beradigan, rag'batlantiradigan muhit bo'lsagina bola o'qiydi va uqadi.*

*Quyidagi mulohazalarimiz shu xususda.*

### G'olib opa-singillar

Ikki yilcha avval Chiroqchi tumanidagi maktablardan birida tashkillashtirilgan tadbirda ishtirok etishga to'g'ri keldi. Tadbir doirasida maktab o'quvchilari o'rtasida uch yosh toifasi bo'yicha "Kitobxon o'quvchi" ko'rik-tanlovi ham o'tkazildi.

Qizig'i, tanlov natijalariga ko'ra, har uchala guruhda g'olib bo'lgan uch o'quvchi qiz opa-singillar bo'lib chiqdi.

Ana shu tadbir so'ngida so'zga chiqqan maktab direktori g'oliblarni tabriklab, shu bilan birga, boshqa o'quvchilarga qarata kuyunib gapirgan edi.

– Mana, shu qizlarimning otasi yangi uy qurib, ko'chib chiqqaniga uch yil bo'ldi, hali uyiga "svet" o'tkaza olgani yo'q, – dedi u. – Televizor ko'rmaydi bular. Siz kompyuterdagi, telefondagi o'yin bilan umr o'tkazayotgan, televizordagi qaysidir seriallarga termilib o'tirganingizda, bular fonus yorug'ida kitob o'qiydi. Mana, vaqtdan foydalanish, mana – natija!..

Bugun ko'p davralarda kitob, kitobxonlik haqida so'z ketar ekan, "Ko'pchilik yoshlarimiz nega kitob o'qimay qo'ydi?" degan savol o'rtaga chiqadi. Ana shunday vaqtlarda xayolimizga o'sha maktab direktorining so'zlari keladi. Kim bilsin, bolalar uchun xayolni chalg'ituvchi ovunchoqlar ko'p bo'lgan joyda kitobga hafsala qolmasmikan, yoki...

### O'qib tugatmagunicha tinchimaydigan bola

Otamurod bilan bundan 20 yil avval bir litseyda o'qiganmiz. U Samarqand viloyatining tog'li Jom qishlog'idan. Odatda, har shanba kuni darslar tugashi bilan uzoqdan kelib o'qiyotgan aksariyat o'quvchilar uyga qaytishga shoshilar, Otamurod esa birinchi galda kutubxonaga borar va otasi uchun to'rt-beshta kitob olib, keyin yo'lga chiqardi.

– Otam maktabda dars beradi, ammo maktab kutubxonasidagi kitoblarning hammasini o'qib tugatgan, shahardan yangi kitoblar olib borishimni tayinlaydi, bo'lmasa zerikib qolishi mumkin, – derdi u.

Kutubxonaga ham otasi uchun a'zo bo'lgan Otamurod bu hafta olib ketgan kitoblarini keyingi hafta qaytarib topshirardi. Aytishicha, padari buzrukvori besh-oltita kitobni bir hafta ichida bemalol o'qib tugatar ekan.

Litseyni bitirib, u boshqa shahardagi, men boshqa shahardagi oliygohlarga o'qishga kirdik. Uzoq vaqt davomida ko'rishmagan edik.

Yaqinda Otamurodni yana uchratib qoldim. Toping-chi, qayerda? Kitob magazinida!

– To'rt-besh yil bo'lib qoldi, otam nafaqaga chiqqan, – deydi u hol-ahvol so'rashgach. – Ammo hali-hanuz qo'lidan kitob tushmaydi. Shaharga yo'lim tushsa, otam uchun uch-to'rtta kitob olmasdan qaytmayman.

Aytgancha, Otamurod yana bir xushxabarni aytib qoldi. Katta o'g'li 5-sinfda o'qisa-da, bu yil "Eng yosh kitobxon" ko'rik-tanlovining tuman bosqichida g'olib bo'lib, endi viloyat bosqichiga tayyorgarlik ko'rayotgan ekan.

– Bobosiga tortganda, ko'rgan kitobini o'qib tugatmasdan qo'ymaydi, – deya kuldi u.

Mening xayolimdan esa bunda bobosi bilan birga, otaning ham xizmati katta, degan fikr o'tdi. Bilganim, u 20 yildan buyon, uyiga doimo kitob olib boradi...

### Butun qishloqni kitobxon qilgan traktorchi

Komil aka degan bir qishloqdoshimiz bor. Ko'p yillardan buyon oliygohda talabalarga dars beradi. Kunlardan birida Komil aka bilan uchrashib qoldik. Har doimgidek suhbat qizigandan qizidi. Asosiy mavzu qishloq, qishloqdoshlar haqida...

– So'nggi paytlarda qishloqqa ko'p ham bora olmayapman, – deydi u biroz xo'rsinib. – Borsam ham birrovga, to'y-ma'rakaga borib qaytaman. Ish, ro'zg'or tashvishlari bilan o'ralashib qoldikmi, bilmayman. Qishloqni, qishloqdoshlarni juda sog'inganman. Aytgancha, Nodir traktorchini ham ko'rib turasanmi, yaxshi yuribdimi?

Men ha, ma'nosida bosh irg'adim. Keyin suhbat mavzusi birdaniga Nodir traktorchiga burilib ketdi.

Nodir traktorchi deganimiz butun umr xo'jalikda oddiy mexanizator bo'lib ishlagan. Lekin qanday to'plagan bilmadimu, uyida mingga yaqin kitoblari bor edi. Butun qishloq Nodir akanikidan kitob olib ketib o'qirdi. U esa hech qachon va hech kimdan kitoblarini qizg'anmasdi. Hatto ba'zi hollarda biror kitobni so'rab borsangizu, uni kimdir olib ketgan bo'lsa, Nodir aka erinmasdan borib, kitobni o'sha kishidan olib kelib sizga berardi.

– Endi o'ylab ko'rsam, Nodir traktorchi bo'la turib ham qishloq ahli uchun katta xizmat qilgan ekan, – dedi Komil aka. – Ko'pchiligimizning kitobga mehrimiz tushishi, o'qib odam bo'lishimizda ana shu Nodir traktorchi, uning kitoblarining hissasi katta.

Bunga ortiqcha izoh shart emas, Komil aka haq edi.

**Jahongir BOYMURODOV**
**("Xalq so'zi").**

## QISQA SATRLARDA

### Kompyuter jamlamalari va smart doskalar yetkazib berildi

Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi hamda Janubiy Koreyaning "Hyundai Rotem" kompaniyasi bilan ikki tomonlama grant shartnomasi doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri, Chimboy, Amudaryo, Xo'jayli, Taxiatosh, Ellikqal'a, Qo'ng'irot tumanlaridagi jami 10 ta umumta'lim maktabi 50 dona kompyuter hamda 20 dona elektron smart doska bilan ta'minlandi.

### Andijonlik yoshlar xorijda tahsil oladi

*Andijonda Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi tomonidan Germaniyaning bir nechta xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlikda "Germaniyada kasbiy ta'lim" pilot loyihasi ishga tushirilgan edi.*




Joriy yilda ushbu loyiha doirasida 97 nafar yosh til o'rganish kurslariga jalb etildi. Ularning bepul ta'lim olishi uchun agentlik tomonidan 419 million so'm mablag' ajratildi. Endilikda ular Germaniya davlatida ham o'qib, ham ishlashi mumkin bo'ladi.

Bu yil yurtimizning ming nafar navqiron avlod vakili ushbu loyiha doirasida xorijda tahsil olish va mehnat qilish huquqini qo'lga kiritadi.

### Mamlakat chempionatida kuchlilar aniqlandi

*Respublika Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi zaif ko'ruvchi va ko'zi ojizlar o'rtasida 5x5 futbol bo'yicha O'zbekiston chempionatiga mezbonlik qildi.*



Musobaqaning hal qiluvchi bahslari natijalariga ko'ra, bronza medallari uchun Farg'ona va Toshkent shahri jamoalari o'zaro bellashdi. Yakunda g'alaba poytaxtliklar tomonida bo'ldi. Mamlakat chempioni degan faxrli nomga esa, finalda Navoiy viloyati jamoasini mag'lub etgan Qoraqalpog'iston Respublikasi jamoasi sazovor bo'ldi.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan medal hamda maxsus diplom bilan taqdirlandi.

### Muammolar joyida hal etildi

*Adliya vazirining Surxondaryo viloyatidagi xizmat safari davomida ko'plab fuqarolarning muammolariga yechim topilmoqda.*

Jumladan, Qumqo'rg'on tumanidagi Jiydali mahallasida yashovchi fuqaro R. Tillabekovaning uzoq vaqtdan buyon shaxsini tasdiqlovchi hujjatini olishda yuzaga kelgan muammo joyida hal etildi.

Ushbu fuqaroning shaxsini tasdiqlovchi hujjatini rasmiylashtirish davomida barmoq izlarini olish va tegishli tizimga saqlash bilan bog'liq bo'lgan muammosi to'liq bartaraf etilib, ID-karta taqdim qilindi.

**"Xalq so'zi".**

**Britaniya kutubxonasiga "O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida" turkumidagi kitob-albomlar topshirildi.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir Z. Xudoyshukurov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 23.32 Topshirildi — 01.10 1 2 3 4 5 6